

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhoyo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obitovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVISHDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbosxon Ravshanxon	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	97
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
THE IMPACT OF EXTERNAL DEBT, INVESTMENT ACTIVITY, AND CAPITAL FORMATION PROCESSES ON EXPORT VOLUME AND ECONOMIC GROWTH DYNAMICS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES	102
Tojiqulova Sitora Sobirjon qizi	
HUMAN CAPITAL AND DIGITAL TRANSFORMATION: DRIVERS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	108
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich	
YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	110
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH KONSEPSIYASI	114
Turdibayev Abdulaziz Abduvaxidovich	
O'ZBEKISTONNING 12 YILLIK TA'LIM TIZIMIGA QAYTISH ISLOHOTI	118
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich	
MAMLAKATNING XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAGI MAVQEINI YAXSHILASHDA IQTISODIY MUSTAHKAMLIKNING AHAMIYATI	123
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
XALQARO SAVDODA MARKETING ROLI: EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	125
Qurolov Maqsud Obitovich	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	130
B.Izbosarov, N.Hakimova	



BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

B.Izbosarov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

N.Hakimova

Tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu tezisda tijorat banklarida risklarni samarali boshqarishning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini yoritilgan. Risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish bo'yicha takliflar berilgan. Shuningdek, Bazel tamoyillari asosida risk-menejment tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, risk boshqaruvi, moliyaviy barqarorlik, Bazel tamoyillari, diversifikatsiya.

Abstract. This thesis highlights the importance of effective risk management in commercial banks to ensure financial stability. It provides recommendations for identifying, assessing, and reducing risks, emphasizing the need to improve the risk management system based on Basel principles.

Keywords: commercial bank, risk management, financial stability, Basel principles, diversification.

Аннотация. В тезисе раскрыта роль эффективного управления рисками в коммерческих банках для обеспечения финансовой стабильности. Представлены предложения по выявлению, оценке и снижению рисков, а также обоснована необходимость совершенствования системы риск-менеджмента на основе принципов Базеля.

Ключевые слова: коммерческий банк, управление рисками, финансовая стабильность, принципы Базеля, диверсификация.

KIRISH

Ma'lumki, hozirgi davrda dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jahon iqtisodiyotining globallasuvi, shuningdek, xalqaro va mahalliy bozorlarda raqobatning keskinlashuvi sharoitida tijorat banklarida risklarni baholash va boshqarishda qo'llaniladigan mexanizmlarni takomillashtirish dolzarbligini ko'rsatmoqda. Respublikamizda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklari oldiga muhim vazifalar qo'yilmoqda. Ayni paytda banklarda risklarni boshqarishni samarali tashkil etish, bank tizimi barqarorligini oshirish va unga nisbatan aholi ishonchini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ham bank tizimini yanada isloh qilishda risklarni boshqarishni takomillashtirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

So'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida bank sohasini isloh qilish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilandi¹. Respublikamizda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida, xususan, bugungi kunda bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasini oshirish, mamlakatimiz moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq banklarda risk boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida qator ustuvor yo'nalishlar ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" — milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, valyuta siyosatini liberallashtirish kabi yo'nalishlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda bazaviy asos yaratdi². Bu esa O'zbekiston tijorat

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentyabr.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.



banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda risklarni baholash va ularni samarali boshqarishning dolzarb ahamiyatga ega masala ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatini jahon talablariga moslashtirish har bir bankdan samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishni, xususan, risk boshqaruvini takomillashtirish choralari ko'rishni taqozo etadi. Ta'kidlash lozimki, jahon moliyaviy inqirozi xalqaro bank amaliyotida risklarni boshqarish tizimida jiddiy nuqsonlar borligini va ushbu tizimni isloh qilish zarurligini ko'rsatib berdi.

Bunday sharoitda bank faoliyati bilan bog'liq risklarni boshqarishni samarali tashkil etish, risklarni tartibga solishning xalqaro talablar asosida qayta ko'rib chiqish, ichki reyting tizimini shakllantirish bo'yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur. Banklar mablag'lar yo'qligi tufayli yuzaga keladigan to'lovga qobiliyatsizlik, moliyaviy va xo'jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lmaslik kabi risklardan ehtiyot bo'lishlari lozim.

Agar bank berilgan kredit talabnomasini yaxshilab tahlil qilmasdan juda katta miqdorda kreditlar bergan bo'lsa va ularning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo'lsa, bunday kreditlar bankka katta zarar keltirishi mumkin. Buni oldini olish uchun esa kreditlash jarayonida riskli holatlarning bank faoliyatiga ta'sirini chuqur o'rganish muhimdir.

Zamonaviy bank faoliyati turli risklar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni samarali boshqarish banklarning eng muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Risk har qanday bank operatsiyalarida turli ko'lamda bo'ladi va turli yo'llar bilan qoplanadi. Oldindan ma'lum moliyaviy natijaga kafolat beruvchi, riskdan holi bo'lgan operatsiyalarni bozor iqtisodiyotida uchratish qiyin. Tijorat banklari uchun risklardan qochish emas, balki ularni bartaraf etish va minimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman, bank riskini boshqarish riskning yuzaga kelish ehtimolini hisoblash, risk tufayli vujudga keladigan noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Risklarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda bank mablag'larni samarali diversifikatsiyalashtirishga va joylashtirish shartlariga yordam beradigan moliyalashtirish rejasini belgilashi kerak.

Tijorat banklarida risklarni boshqarishda depozit portfeli va aktivlarni diversifikatsiya qilish, tijorat banklarida imkon qadar daromad keltirmaydigan aktivlarni qisqartirish, mamlakatimizda islom banki depozitlari xizmatini ham joriy qilish orqali aholining bo'sh mablag'larini jalb qilish hisobiga mustahkam resurs bazasini shakllantirish, jalb qilingan mablag'lar va ularning joylashtirilishida elektron mexanizmlarni joriy qilish kabi takliflarni keltirishimiz mumkin.

Respublikamiz banklari faoliyatida operatsion risk darajasini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish risk-menejmentni samarali tashkil etishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi zarur. Bank kredit faoliyatidagi operatsion risklarning joriy holatini boshqarish metodologiyasining tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kungacha respublikamiz bank amaliyotida operatsion risklarni muntazam aniqlash, o'lchash va ularni minimallashtirishni o'zida ifoda etuvchi operatsion risklarni boshqarishning kompleks konsepsiyasi amaliyotga to'liq joriy etilmagan.

Bundan ma'lumki, risklarni boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy amaliyotda keng qo'llaniladigan usullarni chuqur o'rganib, mamlakatimiz sharoitida qo'llashni joriy etish kelgusida bank-moliya tizimi barqarorligini mustahkamlashda yuksak natijalarga erishish uchun muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish moliya-bank tizimi barqarorligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir. Bank faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy, kredit, likvidlik va operatsion risklar ularning daromadliligi hamda to'lovga qobiliyatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun banklarda risklarni aniqlash, baholash, nazorat qilish va kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirishda risklarni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish, ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash hamda Bazel tamoyillari asosidagi reyting tizimlarini keng qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki iqtisodiyotning umumiy investitsion muhitiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni, 2023-yil 11-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hujjati, 2022-yil 28-yanvar.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Sound Management of Operational Risk. Bank for International Settlements, 2021.
4. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Assessment: Enhancing Risk Management and Banking Stability. Washington, D.C., 2023.



5. OECD. Financial Market Trends: Risk Management and Resilience in Emerging Economies. Paris, 2022.
6. IMF. Global Financial Stability Report: Managing Liquidity and Bank Risks in Volatile Markets. Washington, D.C., 2024.
7. Caprio, G. & Honohan, P. Banking Crises and Risk Management: Policy Lessons from Emerging Economies. World Bank Policy Research Paper, No. 10234, 2021.
8. Al-Tamimi, H. & Al-Mazrooei, F. Banks' Risk Management Practices: A Comparative Study of the UAE National and Foreign Banks. Journal of Risk Finance, Vol. 22(3), 2021.
9. Khan, M. S. & Mirakhor, A. Islamic Banking and Risk Management: Principles and Practice. Journal of Islamic Economics, Banking and Finance, Vol. 18(2), 2022.
10. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 13th Edition. Pearson Education, 2022.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100